

**“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

№	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	Mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilari asosida suvoqbop quruq qurilish qorishmalari ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Farg‘ona viloyatidagi asbestsement buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda yiliga 3,5–4,0 ming tonna hosil bo‘ladigan asbestsement chiqindilariga xavfsiz termik ishlov berish orqali tarkibidagi asbest tolalarini zararsizlantirish hamda ushbu chiqindini gipsli bog‘lovchi moddaning bir qismini almashtiruvchi mineral komponent sifatida qo‘llash texnologiyasi ishlab chiqiladi; termik ishlov berilgan asbestsement chiqindisi asosidagi bog‘lovchi komponent va ohak ishlab chiqarish chiqindisidan tayyorlangan mineral to‘ldiruvchidan foydalanib, suvoqbop quruq qurilish qorishmasining optimal tarkibi aniqlanadi. Mahsulotning donadorlik tarkibi, suv tutuvchanligi, qulay yoyiluvchanligi, qotish muddati, asosga yopishish mustahkamligi, siqilishdagi mustahkamligi hamda ekspluatatsion barqarorligi GOST 31357-2007 talablariga muvofiq ta‘minlanadi; laboratoriya va tajriba-sanoat sinovlari asosida “ECO MASTER” markali suvoqbop quruq qurilish qorishmasining texnologik reglamenti, texnik shartlari va sifat nazorati usullari ishlab chiqiladi. Mahalliy xomashyo va chiqindilardan foydalanish hisobiga 1 tonna mahsulot tannarxi 750 000 so‘mdan 667 500 so‘mgacha, ya‘ni 82 500 so‘m yoki 11 foizga kamaytiriladi; yillik ishlab chiqarish quvvati 11 000 tonna bo‘lgan texnologik liniyani tashkil etish bo‘yicha texnik-iqtisodiy asos ishlab chiqiladi. Farg‘ona viloyatida 60–90 ming tonnani tashkil etuvchi yillik talabning 15–20 foizini qoplash, alohida korxona tashkil etilganda yiliga 922 mln so‘m, sement ishlab chiqarish korxonasida joriy etilganda 1,08 mlrd so‘mgacha foyda olish, 22 ta doimiy ish o‘rni yaratish hamda investitsiyaning 3 yil ichida qoplanishiga erishiladi; Texnologiyani joriy etish natijasida asbestsement va ohak sanoati chiqindilarining poligonlarga joylashtirilishi kamaytiriladi, tabiiy gips hamda mineral to‘ldiruvchilarga bo‘lgan ehtiyoj qisqartiriladi va ekologik toza, resurstejamkor quruq qurilish qorishmasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan tarkib va texnologiya Farg‘ona viloyatidagi asbestsement buyumlari, sement hamda quruq qurilish qorishmalari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tajriba-sanoat sinovidan o‘tkaziladi. Mahsulotning amaliyotda foydalanishga yaroqliligi bo‘yicha “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi va Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining tegishli tashkiloti xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi hamda tajriba-sanoat sinovlarini o‘tkazuvchi korxonaning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.